

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

4-son (6-jild)

**2026**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 4 (6) – 2026*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2026**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА .....	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI .....	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА .....	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH .....	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ .....	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR .....	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI .....	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI .....	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI .....	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI .....	86-90

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025) .....	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI .....	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI .....	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI .....	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI .....	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL .....	141-154

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI .....	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR .....	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI" .....	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE" .....	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

*Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li*  
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:  
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB  
TALQINLARI..... 211-215

*Rustamova Madina*  
OMMAVIY MANIPULYATSIIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:  
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

*Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich*  
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOIIY MUNOSABATLARNING  
TRANSFORMATSIIYASI..... 221-225

#### **10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI**

*Isanova Feruza Tulqinovna*  
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING  
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK  
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI ..... 226-232

*Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo*  
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING  
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIIY TAHLIL ..... 233-241

*Quvvatova Shaxlo Choriyevna*  
XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI TAHLILI..... 242-246

*Elmuratova Zamira Xodjamuratovna*  
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

#### **12.00.00 - YURIDIK FANLAR**

*Shayzakov Shodiyor Ibragimovich*  
QONUNIIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA  
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIIY ASOSLARI..... 252-261

*Umarova Xolisxon Nomoz qizi*  
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK  
UCHUN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

*Аминова Наргиза*  
OT SEKYAPPIZMA K POSTSEKYAPPIPHOCTII:  
MOДЕЛИ BЗАИМОДЕЙСТBИЯ PЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО  
B COBPEMЕHHOM OБЩЕСТBЕ ..... 270-277

*Amirov Agzamxon Aktamovich*  
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

*Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li*  
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIIY RIVOJLANISH BOSQIHLARI:  
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

*Kabilov Sardor Asrolovich*  
JINOIIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIIY ASOSLARI ..... 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH .....	301-304
<i>Сабирова Куванчай Бабамуратовна</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ .....	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI .....	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI .....	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH .....	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION .....	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOYIY ASOSLARI .....	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

**Received:** 16 March 2026

**Accepted:** 01 April 2026

**Published:** 15 April 2026

*Article / Original Paper*

## **STRATEGIC REFORMS IN BUILDING A NEW UZBEKISTAN: THE HARMONY OF DEVELOPMENT AND SPIRITUAL ELEVATION**

**Kenjayev Elyor**

Independent researcher,  
Navoi State University

**Abstract.** Scientific justification of the compatibility of strategic reforms being implemented in the process of building a new Uzbekistan with spiritual and educational upliftment. Clarification of the interrelationship of the concepts of development and spirituality. Assessment of the role of spiritual upliftment in the development of society. Analysis of the compatibility of strategic reforms and spirituality.

**Keywords:** New Uzbekistan, strategy, development, reform, spiritual and enlightened policy, spiritual upliftment, spiritual harmony, "Third Renaissance", "Uzbekistan-2030", spiritual development, enlightened society

## **YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI**

**Kenjayev Elyor Sattorovich**

mustaqil tadqiqotchi, Navoiy davlat universiteti

**Annotatsiya.** Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida amalga oshirilayotgan strategik islohotlarning ma'naviy-ma'rifiy yuksalish bilan o'zaro uyg'unligini ilmiy asoslash. Taraqqiyot va ma'naviyat tushunchalarining o'zaro bog'liqligini yoritish. Ma'naviy yuksalishning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini baholash. Strategik islohotlar va ma'naviyat uyg'unligini tahlil qilishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, strategiya, taraqqiyot, islohot, ma'naviy-ma'rifiy siyosat, ma'naviy yuksalish, ma'naviy uyg'unlik, "Uchinchi Renessans", "O'zbekiston-2030", ma'naviy taraqqiyot, ma'rifatli jamiyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N10>

**Kirish.** "Yangi O'zbekiston" g'oyasi nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy islohotlarni, balki jamiyatning ma'naviy va madaniy yuksalishini ham o'z ichiga oladi. Zero, barqaror taraqqiyot faqat iqtisodiy o'sish bilan emas, balki insonning ma'naviy kamoloti bilan ham belgilanadi. Hurmatli Prezidentimiz, Sh.Mirziyoyevning — "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz"[8], – deb qat'iy ta'kidlaganlari nuqtai nazardan, mamlakatda amalga oshirilayotgan strategik islohotlar va ma'naviy-ma'rifiy ishlar o'zaro uyg'unlikda olib borilmoqda. Biz bilamizki, strategiya - bu uzoq muddatli maqsad yoki natijaga erishish uchun ishlab chiqiladigan, umumiy yo'nalish va harakatlar tizimini belgilab beradigan reja yoki dasturdir. Ya'ni, strategiyada: ustuvor yo'nalishlar va asosiy maqsadlar aniqlanadi, ularga erishish uchun resurslar, muddatlar, vositalar belgilanadi.

2017-2025-yillar oralig'ida qabul qilingan uchta strategiya bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular o'zaro izchillik asosida rivojlantirib kelinmoqda. Harakatlar strategiyasi orqali barcha sohalarda boshlangan tub islohotlar, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda ham yangiliklar va o'zgarishlar bilan uyg'un holda olib borilgan bo'lsa, Taraqqiyot strategiyasi orqali ma'naviy-ma'rifiy sohani qo'llab-quvvatlash islohotlari yanada chuqurlashtirildi, "O'zbekiston-2030" strategiyasi orqali esa, yanada yuqori marralar belgilandi. Ushbu strategiyalar ijrosi orqali, hayotimizda inson qadri yuksalayotganligi va yurtimiz yoshlarining Uchinchi Renessansning bunyodkorlari sifatida, aqliy va ijodiy namunalari orqali jahon maydonlarini zabt etayotganligida guvoh bo'lib turibmiz[2].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Prezident Sh.Mirziyoyevning shiddatli islohotchilik siyosati nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni balki ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishni ham yuksak bosqichga olib chiqdi. "Yangi O'zbekiston orzusi", "Uchinchi Renessans poydevorini yaratish" kabi nazariy, ilmiy-ma'naviy mo'ljallar, bugungi kunga kelib real strategik maqsadlar ijrosiga aylandi. Davlatimiz rahbarining ushbu g'oyalarni amalga oshirishda ma'naviyatning o'rniga alohida baho berib, "Biz uchun ma'naviyat - insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir.

Boshqacha aytganda, ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha kuchli bo'lsa, xalq ham davlat ham shuncha kuchli bo'ladi", -deb ta'kidlaganlari bejizga emas[8].

Ana shu asosda, o'tgan qisqa davrda mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish maqsadida bir qator normativ va konseptual hujjatlar, strategiya va dasturlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli "Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonlari qabul qilindi[12].

Ushbu strategiyalarda belgilangan ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta farmon va 5 ta qarorlari hamda 2 ta farmoyishlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 3 ta Qarori, 4 ta farmoyishi qabul qilindi. Shu asosda davlatning ma'naviy-ma'rifiy siyosatini tizimlilik va uzluksizligi yaratildi.

Shu ma'noda, 2017-yil 28-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son qarori qabul qilingach, Respublika Ma'naviyat targ'iboti hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazlari faoliyati umumlashtirilib, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4307-sonli va 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5040-sonli qarorlari – sohada faoliyat samaradorligini oshirish borasidagi navbatdagi muhim qadam bo'ldi. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 3-iyundagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi

huzurida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 340-sonli va 2025-yil 3-martdagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining tuman (shahar) bo'linmalari tizimidagi ma'naviyat va ma'rifat maskanlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 138-sonli qarorlari sohani rivojlantirish uchun dasturulamal bo'ldi[6].

**Muhokama.** Yangi O'zbekiston g'oyasi – bu adolatli jamiyat barpo etish, inson qadrini ulug'lash va xalq manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli konsepsiyadir. Unda "inson-jamiyat-davlat" tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu g'oyaning asosiy jihatlari: inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, ochiq va shaffof davlat boshqaruvi, qonun ustuvorligi va fuqarolik institutlarini rivojlantirish Yangi O'zbekiston g'oyasi barcha sohalardagi kabi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mafkuraviy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Dastavval, Harakatlar va Taraqqiyot strategiyalarida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning quyidagi yo'nalishlari belgilab olingan edi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning yoshlarning zamonaviy bilimlari bilan uyg'unlashtirish. Bunda yoshlarning yangicha fikrlash va ishlashini zamonaviy targ'ibot texnologiyalari orqali ularga yetkazish. Uzluksiz ma'naviy tarbiyani bog'cha yoshidan boshlab, oliy ta'limning yuqori bosqichgacha qamrab olish. Ma'naviy taraqqiyot strategiyasi hamda uni amalga oshirish dasturini qabul qilish. Bunda, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijodiyot sohasi vakillariga doimiy e'tibor qaratish, ularni moddiy-ma'naviy jihatdan rag'batlantirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va qo'llab-quvvatlashni davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilashni o'z ichiga oladi.

Ma'naviy-ma'rifiy sohaning barcha yo'nalishlarida, jumladan mashhur allomalar, akademik teatr va muzeylarni yubiley sanalarini nishonlash, ko'p jildlik adabiyot namoyondalarini badiiy to'plamlarini nashr ettirish. Shuningdek, madaniyat muassasalari, teatr, muzey va kutubxonalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash dasturlarini qabul qilish va ijrosini ta'minlash.

2023-yil 22-dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda Prezidentimiz tomonidan ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat va san'at sohaslarida 9 ta yo'nalishda tashabbuslar ilgari surildi[13].

Birinchiidan, ma'naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladigan milliy g'oyamizni rivojlantirish bo'yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqish belgilandi.

Ikkinchiidan, madaniy-ma'rifiy sohadagi ishlarda hokimlarning mas'uliyati oshirilishi tuman va shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlari ishga tushirish vazifasi belgilandi.

Uchinchiidan, teatr san'atini rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqilishi, unda eng yaxshi pyesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo'llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg'ur nomidagi mukofot ta'sis etish kabilar nazarda tutildi.

To'rtinchiidan, aholining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda 837 ta madaniyat markazining faoliyatini rivojlantirish, har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to'garak xonalari bo'lgan bittadan madaniyat markazi faoliyati yo'lga qo'yish belgilandi.

Beshinchiidan, maqom va baxshichilik san'atini ilmiy asosda o'rganish va rivojlantirish kuchaytirilishi, hozirgacha 120 ta maqom, baxshichilik dostonlari, xalq kuyi va qo'shiqlari "oltin fond"ga yozib olinganligi, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros institutini tashkil

etish, qadim musiqa asarlarini tadqiq qilish, mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan 3 mingdan ziyod doston, maqom va folklor asarlarini zamonaviy formatga o'tkazish ko'zda tutilganligi ta'kidlandi.

Oltinchidan, musiqa va raqs san'ati rivoji qo'llab-quvvatlanadi. Jumladan, "Bahor" raqs ansambli ilgari Filarmoniya joylashgan mashhur san'at saroyida faoliyat yuritishi belgilandi. Toshkent davlat sirki binosida ta'mirlash ishlari olib borilishi belgilandi.

Yettinchidan, xalqaro maydonda o'zbek madaniy diplomatiyasi kengaytiriladi. Nukusda esa "Orol madaniyati" xalqaro ilmiy anjumani o'tkazilishi, Islom sivilizatsiyasi markazida Birinchi va Ikkinchi Renessans, davlatchilik tarixi va buyuk allomalar faoliyati bo'yicha yangi ekspozitsiyalar bilan boyitilishi belgilandi. Fransiya bilan hamkorlikda Milliy restavratsiya markazi faoliyati yo'lga qo'yilib, Muqaddas kitob – Usmon Qur'oni sahifalari konservatsiya qilinishi ta'kidlandi.

Sakkizinchidan, kino sohasi rivojlantiriladi. Bu borada "Tirik tarix" seriyasida Vatanimizning shonli o'tmishiga bag'ishlangan filmlar yaratish dasturi davom ettirilishi, kinoni iqtisodiyot bilan uyg'un rivojlantirish maqsadida Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlarida "erkin iqtisodiy kinohududlar" barpo etish vazifasi qo'yildi.

To'qqizinchidan, tasviriy va amaliy san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha dastur qabul qilinishi jumladan, markaziy ko'rgazmalar zali rekonstruksiya qilinishi va jihozlanishi belgilandi. Badiiy fond hududida zamonaviy galereya binosi quriladi hamda 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar markazi tashkil etiladi. Xattotlik va miniatyura san'ati ta'limini amaliyot bilan bog'lash maqsadida milliy usulda qog'oz tayyorlash ustaxonasi tashkil etilishi kabi tashabbuslar ilgari surildi.

**Natijalar.** Strategiyalar asosida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar va yangilanishlar natijalari, aholining turmush tarziga katta ta'sir ko'rsatayotganligi, ushbu sohalarning maqsadi va mohiyatini belgilaydigan tizimli tadbirlar, amaliy va samarali ishlar uyg'unlikda olib borilayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Biz tahlil qiladigan sohada esa bu quyidagilar:

**Birinchiidan,** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma'naviyat kengashi raisi ekanligi belgilab qo'yildi va bu ayni tizimda eng asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishning yaqqol natijasi bo'ldi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Respublika ma'naviyat kengashining ishchi organi sifatida qayta tashkil etildi, uning faoliyat mezonlari va bu boradagi ustuvor vazifalari aniq - tiniq belgilandi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi va bu bo'yicha samarali faoliyat yuritilmoqda. Harakatdagi ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan ma'rifiy targ'ibot ishlari izchil davom etmoqda.

**Ikkinchiidan,** mamlakatimiz miqyosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ko'lami va miqyosini kengaytirish, uning yangi va zamonaviy tizimini shakllantirish, ushbu tizimda faoliyat ko'rsatayotgan soha xodimlari mehnatiga haq to'lashning barqaror tizimini yo'lga qo'yish, muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi. Shuningdek, hududlarda amalga oshirilayotgan qiyofaviy yangilanishlarni o'zidan yaxshi nom va o'lmas meros qoldirgan adabiyot, san'at va

madaniyat namoyandalariga atab maktablar, xiyobonlar va ijod bog'larini barpo etish ishlari amalga oshirildi.

**Uchinchidan**, jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va bu hayotga tatbiq etilmoqda. Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash maqsadida, "Bir ziyoli – bir mahallaning ma'naviy homiysi", "Har bir nuroniy – o'n nafar yoshga mas'ul", "Buyuk sarkardalarning jasorati va harbiy merosi", "Besh muhim tashabbus – yoshlar qanoti" kabi tamoyillar asosida ma'naviy-ma'rifiy tashabbuslar tizimi yo'lga quyildi.

**To'rtinchidan**, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Institut qoshida "Ma'naviyat tarixi va nazariyasi", "Ma'naviy tarbiya", "Ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar" kabi yo'nalishlarda doktorlik dissertatsiyasi himoyasi uchun ixtisoslashgan kengash ish boshladi. Shuningdek, "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi" tuzildi, Oyina.uz ma'naviy-ma'rifiy portali ochildi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha yangi elektron platforma ishga tushirildi, "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni ta'sis etildi, Ma'naviyat va ma'rifat masalalariga oid turli mavzularda respublika va xalqaro anjumanlar o'tkazish yo'lga qo'yildi, "Ma'naviyat marafoni" tashkil etilmoqda.

**Beshinchidan**, bugungi kunda mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohada davlat siyosatini amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarini, Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilib borishni davom ettirish va Ma'naviy taraqqiyot strategiyasining uzoq yillik dasturni ishlab chiqib, amalga oshirish maqsad qilangan.

Mamlakatimizda 2023-yilda o'tkazilgan siyosiy islohotlar, referendum va saylovlardagi yangi tashabbuslar va aholining yangi marralarga bo'lgan talablaridan kelib chiqib hamda qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, kuchli iqtisodiyotga tayanadigan xavfsiz va barqaror davlatni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi 158-sonli Farmoniga asosan "O'zbekiston -2030 strategiyasi" dasturi qabul qilindi[15].

Ushbu strategik dasturni birinchi ustuvor maqsadlarning beshinchi yo'nalishi bevosita **"Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar"** deb nomlanib 7 ta ustuvor maqsadlarni belgiladi.

Jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar, xalqaro bozorlardagi tebranishlar, sanoat va texnologiyalarning keskin rivojlanishi, energiya bozorlaridagi transformatsiya, global ta'minot zanjirlarining qayta shakllanishi O'zbekistondan ham yangi yondashuvlar asosida rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishni talab etdi. shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi 21-sonli **"Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"** gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu strategiya «maqsad — harakat — natija» zanjiriga asoslangan mutlaqo yangi strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimi belgilab berdi.

Ushbu Strategiyada belgilab berilgan maqsadli ko'rsatkichlarni ikki yil oldin qabul qilingan strategiya bilan sohadagi o'zgarishlarni aniq raqamlar bilan belgilanganligi ma'naviy-ma'rifiy sohada ham o'z aksini topdi.

Misol uchun, **birinchi ustuvor maqsad sifatida**, "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash" (38-maqsad) belgilandi. Va u o'zida ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, maktablarni chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish, milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish kabi umumiy maqsadlarni o'z ichiga olgan edi. Yangi qabul qilingan strategiyada bu konkretlashtirildi, yoshlarda mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish hamda milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhini kuchaytirishga qaratilgan 18 ming tizimli targ'ibot tadbirlarini o'tkazish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga qaratilgan 5 mingta zamonaviy media mahsulotlar va kreativ raqamli targ'ibot materiallarini tayyorlash kabi vazifalar bilan aniqlashtirildi.

Shuningdek, **ikkinchi ustuvor maqsad**, "Davlat tilining nufuzini oshirish, o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni rivojlantirish" (39-maqsad) yo'nalishidagi kitobxon yoshlarni 5 millionga yetkazish maqsadli ko'rsatkichi, yoshlar orasida sevimli loyihaga aylangan "Mutolaa" loyihasi orqali kitobxonlikka jalb etilgan yoshlarning ulushini 50 foizga yetkazish ko'rsatkichiga o'zgartirildi. Umumta'lim maktablari kutubxonalarida kamida 60 nomdagi o'zbek adabiyotlarining rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman va qoraqalpoq tillaridagi tarjima asarlari qamrovini 60 mingga yetkazish hamda O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildlik to'plamining 51 — 100 jildlarini nashr etish ko'rsatkichlari belgilandi.

Xuddi shunday, **Uchinchi ustuvor maqsad** sifatida "Zamonaviy teatr va sirk san'atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g'oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish"(40-maqsad) quyidagi vazifalar belgilandi. Davlat teatrlariga tomoshabinlarning tashrifini 15 millionga yetkazish, davlat teatrlarida 600 tadan ortiq yangi spektakllar sahnalashtirish, davlat teatrlarining 125 ta (yillik kamida 25 ta) xalqaro festival va gastrollarga yuborilishini tashkil etish. teatr sohasida xususiy sektor ishtirokini 25 foizga oshirish, davlat sirkklariga tomoshabinlarning tashrifini 250 mingga yetkazish, joylarda o'tkaziladigan sirk tomoshalarining yillik sonini 440 gacha oshirish kabi maqsadlar strategiyada vazifa sifatida belgilandi.

**To'rtinchi ustuvor maqsad**, "O'zbek milliy san'atini targ'ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish" (41-maqsad). Davlat konsert-tomoshalar muassasalari tomonidan namoyish etiladigan madaniy tadbirlar va festivallarga 62,5 million tomoshabinlarni jalb etish, maqom, baxshichilik, raqs va teatr yo'nalishlarida o'tkaziladigan xalqaro festival va anjumanlar sonini 40 taga yetkazish, turizm obyektlarida yillik kalendar asosida o'tkaziladigan madaniy va teatr tomoshalarini sonini 2 400 taga yetkazish maqsad qilindi.

**Beshinchi ustuvor maqsad**, "Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ommalashtirish bilan bog'liq faoliyatni yanada takomillashtirish"(42- maqsad). 112 ta madaniy meros obyektini asrashga doir ishlarni amalga oshirish, 20 tadan ortiq nomoddiy madaniy meros elementini chuqur ilmiy tadqiq etish;YUNESKOning xalqaro ro'yxatlariga jami 5 ta moddiy madaniy meros obyektlarining nomzodnomalarini kiritish choralarini ko'rish. Muzeylarga yillik tashrifni 7 millionga yetkazish, muzeylarda muzey eksponatlarini raqamli ro'yxatga olish darajasini 100 foizga yetkazish. Har yili kamida 50 ta nomoddiy madaniy meros

namunalari yozib olish va keng targ'ib qilish. Askiya va qiziqchilik san'atining iste'dodli so'z ustalari ijodiga bag'ishlangan 25 ta adabiyot yaratish. 2,5 ming arxeologiya ashyolarini davlat katalogidan ro'yxatdan o'tkazish kabi maqsadlar belgilandi.

**Oltinchi ustuvor maqsad**, "Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san'at yo'nalishlarini rivojlantirish" (43-maqsad) belgilandi. Bolalar musiqa va san'at maktablarini musiqa anjomlari bilan ta'minlash darajasini 100 foizga yetkazish, madaniyat va san'at tizimidagi oliy ta'lim muassasalarida ilmiy darajali va unvonli kadrlar ulushini 60 foizga yetkazish. Bolalar musiqa va san'at maktablarini 70 foiz oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash. Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan madaniyat va san'at muassasalari ulushini 5,8 foizgacha yetkazish kabi vazifalar maqsad qilindi.

**Yettinchi ustuvor maqsad** "“Milliy kinematografiyani rivojlantirish” (44-maqsad) doirasida bir qator ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, davlat buyurtmasi asosida yaratiladigan yillik kinomahsulotlar sonini 100 tadan oshirish, milliy filmlar joylashtiriladigan dunyodagi mashhur internet platformalari sonini 11 taga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, milliy qahramonlar obrazini yorituvchi animatsion filmlar ishlab chiqarishni 20 taga yetkazish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, kinoindustriya sohasiga, jumladan xususiy va xorijiy investitsiyalar hajmini 2,5 million dollarga yetkazish, milliy kinematografiya mahsulotlari eksportini 1,5 million dollarga oshirish hamda milliy filmlarni taqdim etiladigan nufuzli xalqaro kinofestivallar sonini 50 taga yetkazish kabi muhim maqsadlar belgilangan.

**Xulosa.** Ma'naviyat – jamiyatning ruhiy tayanchi hisoblanadi. Inson ma'naviy jihatdan barkamol bo'lmas ekan, har qanday iqtisodiy yutuqlar bardavom bo'lmaydi. Milliy qadriyatlar va an'analarni singdirishning zamonaviy usullari qo'llanilishini hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kengaytirishni bugungi globallashuv zamon, har kuni talab etmoqda. Taraqqiyot va ma'naviyat bir-birini to'ldiruvchi tushuncha ekanligi, agar jamiyatda faqat iqtisodiy o'sishga e'tibor qaratilib, ma'naviyat e'tibordan chetda qolsa, bu barqaror rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi tarixiy haqiqatdir. Shuning uchun, iqtisodiy islohotlarning ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish masalasi dolzarbligini, bu o'rinda inson omili markaziy o'rinda ekanligi har birimiz anglashimiz kerak.

Amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlar natijasida yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati shubhasiz mavjud. Biroq ushbu murakkab va ko'p qirrali jarayonda ma'naviy-ma'rifiy hayotning barcha jihatlari hamda u bilan bog'liq insonlar tafakkurining bir zumda yoki avtomatik tarzda o'zgarib ketishi tabiiy emas.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida strategik islohotlar ma'naviy yuksalishdan kuch va ilhom olib, o'zaro chambarchas rivojlanadi. Ushbu uyg'unlik mamlakat taraqqiyotining barqarorligini ta'minlaydi. Inson qadrini ulug'lash, ma'naviy barkamollikka erishish va iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash orqali Yangi O'zbekistonning mustahkam poydevori yaratiladi.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr.-Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari: "Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida" (1994 -yil 23-aprel); "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va

- samaradorligini oshirish to'g'risida" (1996-yil 9-sentabr); "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" (1999-yil 3-sentabr); 2023-yil 11-sentyabrdagi 158-sonli farmonga asosan "O'zbekiston-2030 strategiyasi" hamda 2026-yil 16-fevraldagi 21-sonli "Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari: "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida" (2006-yil 25-avgustdagi PQ – 451-son) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari: «Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazining faoliyatini tashkil etish to'g'risida" (1994-yil 8-iyun); "Ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish choratadbirlari to'g'risida" (1998 -yil 24-iyul); "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" (2017 yil iyuldagi PQ-3160-son); "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" (2019 yil maydagi PQ-4307-son); "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2021 yil 26-martdagi PQ-5040-son).
  4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari: "Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2018 yil 17 sentyabrdagi 736-son qarori); "Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"( 2021-yil 3-iyundagi 340-sonli); "Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining tuman (shahar) bo'linmalari tizimidagi ma'naviyat va ma'rifat maskanlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"( 2025-yil 3-martdagi 138-sonli qarori).
  5. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 4 avgust, 153-son.
  6. Mirziyoyev Sh.M. Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2022 yil, 22 dekabr, 311-son.
  7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz T.: O'zbekiston, 2017. 242b.
  8. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: "O'zbekiston", nashriyoti, 2023.-261 bet
  9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.:Ma'naviyat, 2009.
  10. Artikbayev O.S., Turdimuratov Ya.A. Yangi O'zbekiston tarixi. - T.: "Zamon poligraf nashriyoti - Toshkent, 2023. – 20-34 b.
  11. <https://xs.uz/uzkr/post/manaviyat-boshqa-sohalardan-oldinda-yurishi-yangi-kuchga-yangi-harakatga-ajlanishi-kerak-prezident>.
  12. <https://lex.uz/mact/-3107036>;
  13. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>;
  14. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>;
  15. [https://gov.uz/oz/pages/2030\\_strategy](https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy).

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).